

AL-BUXORIYNING HADISLARIDA TARBIYA MASALASI

Yuldashev Farog'at

O'Zdjukatta o'qituvchi

Ilmiy rahbar:

Abdiqodirova Nozima Nazar qizi

O'Zdju 2- kurs talabasi

Annotatsiya: *Maqolada hadis ilmi, hadislardagi ma'naviy-axloqiy qarashlar shaxs sifatida izoh bergan. Hadislarning mazmun mohiyati yoritilgan va shuningdek hadis har bir yosh avlodni barkamol, komil inson sifatida voyaga yetishida xizmat qiladi.*

Kalit so'zlari: *hadis, odob-axloq, yaxshilik, ota-ona, mehr-muhabbat, ilm, bilim, dunyoqarash, din qo'shniçilik munosabatlari, insof, adolat.*

The article: *explains the science of hadith, the spiritual and moral view in the hadiths, and personality traits. The essence of the hadiths is highlighted. It serves to form every young generation as a harmonious, perfect person.*

Key word: *hadith, morality, goodness, parents, compassion, knowledge, worldview, religion, neighbour, honesty.*

Hadisning asosiy katta qismi axloq odob masalalariga, inson manaviyati bilan bo'g'liq muammolarga yaratilgan. Shuning uchun hadislarga eng qadimgi davrlardan – Muhammad s.a.v. payg'ambarimiz zamonidanoq alohida e'tibor qaratilgan. Hadislar imkoni boricha xatosiz, asl holida boshqalarga yetkazilishi lozim bo'lgan. Payg'ambarimiz nomiga bo'g'lab turib yolg'on hadis tarqatish qattiq qoralangan.

Ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot oqibatida sinflar, ijtimoiy guruhlar orasida munosabatlar, qarashlar ham o'zgarib boradi, ziddiyat, ixtilof va kelishmovchilik yuz beradi. Shunday hodisa islom dinida ham ko'zga tashlanadi. Islom dinidagi ichki g'oyaviy kurashlar va o'zaro murosasizlik natijasida payg'ambar hadislarini buzish, ularni soxtalashtirish ham ko'zga tashlana boshlaydi. Bunday noma'qul harakatlarga qarshi kurashish zaruriyati yuzaga keladil. Natijada hadislarni eshitish bilan emas, balki yozib olish, uning haqiqiy dastlabki shaklini tiklash bilan ham shug'ullanishga to'g'ri kelad. Shunga ko'ra hadislarni to'plab bitta kitob holiga keltirish harakati VIII asrdan boshlab keng tarqalgan. Muhaddislar haqiqiylikni ayrim belgilar orqali aniqlashgan. Bular: hadislar Qur'on oyatlariga zid kelmasligi lozim; ular payg'ambar sunnatlariga mofiq bo'lishi shart; ularda tarixiy voqealik buzilmasligi kerak. Hadislar g'ayri axloqiy g'oyalarda bo'lishi mumkin emas. Hadislarni to'plab ularning haqiqiylikni aniqlash bilan shug'ullaniladigan insonlarni muhaddislar deyiladi. Hadislarning mavzu qamrovi nihoyatda keng. Ular Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning hayoti va faoliyati bilan bog'liq hadislar talqini, o'zaro insoniy munosabatlar, do'stlik, ahillik, saxovat, ota-ona va qarindosh urug'larga bo'lgan munosabat, halollik, poklik, ado;at, insof, diyonat, xasad, xiyonat, rostgo'ylik, yolg'onchilik va boshqa

insoniy fazilatlar va nuqsonlar ustida bahs yuritiladi. Muhimi ularda yuksak insoniy fazilatlar ulugʻlanadi, kishilarda shunday xislatlarning borligi maʼqullanadi.

“Yoshlikda olingan bilim toshga oʻyilgan naqsh kabidir” Hadislarda ilmga boʻlgan eʼtibor kuchli boʻlgan va shuningdek paygʻambarimiz ilimli boʻlmoqning fazilatlarini haqida koʻp takidlagan. “Ilmning fazilatlarini toʻgʻrisida” hadisida ilm haqida fikr yuritilgan. Alloh taolo oyati karimasida: “Alloh taola sizning orangizda imom keltirganlarni va ilmni yuksaltirganlarni bu dunyoda yarlaqab, martabasini ulugʻ qilgʻaydir, oxiratga jannatga kirmoqni nasib etgusidir, Alloh taolo qilayotgan ishlarizdan xabardordir”, - deyilgan. Yana boshqa oyati karimada esa: “Yo Rabbiy, ilmimni ziyoda qilgʻaysen, deb ayt!” – deyilgan.

Hadislarda kishilarning bir- biriga boʻlgan samimiyati, intilishi, doʻstligi haqida ham koʻpgina ibratli oʻgitlar borligi koʻzga tashlanadi. Hadislar hayot haqida oʻgitnomalardir. “Din – nasihatdan iborat” degan hadis bejiz emas. Birgina qoʻshnichilik munosabatlarini koʻzdan kechiraylik. “Qoʻshning tinch – sen tinch” degan oʻzbek xalq maqoli mavjud. Hadislarda esa oʻqiyimiz: “Qoʻshningizga yaxshilik qiling – tinch boʻlasiz”. Paygʻambar alayhissalomning qoʻshni haqidagi hadislardan yana biri: “Jabroil alayhissalom menga doimiy ravishda qoʻshniga yaxshilik qilishni aytar edi, hatto qoʻshniga meros ham qoldirish kerakmi deb, oʻylab qolar edim. Xizmatkorlarga ham shunday yaxshi muomalada aytar ediki, hatto muayyan bir vaqt belgilasa kerak va oʻsha muddat yetishi bilan qullar oʻz-oʻzidan ozod boʻlib ketsa kerak, deb ham oʻylab qolar edim”. Hadislarda hatto iymonning baquvvatligi va Allohga sadoqati ham qoʻshniga qilinadigan muomalaga bogʻlab talqin qilindi. Koʻrinib turibdiki, bularning hammasi insonning maʼnaviyati, uning boyligi bilan bogʻliq. Har qanday gʻarazlardan xoli boʻlgan, har bir insonga pok nazar bilan qaray olish darajasiga koʻtarilgan inson maʼnaviy jihatdan boy hisoblaniladi. “Qachonki hayolingizdan biror shubhali fikr oʻtsa, unit ark eting!” “Iymon jihat moʻminlarning komilrogʻi – xulqi yaxshi boʻlgani va xotirlarga yaxshi muomala qiladiganidir”. “Iymon bilan amal bir-biriga juda yaqindir. Ular bir-biri bilan juda yaqindir. Ular bir- birisiz durst emas”.

Hadislarda ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj boʻlgan kishilarga alohida eʼtibor berilgan: “Qalbning muloyim, hojating ravo boʻlishni xohlaysanmi? Xohlasang, yetimlarga mehribon boʻl, ularning boshini sila, oʻz taomingdan ularga yedir. Shunda diling yumshab, hojating ravo boʻlur”. “Tangri nazdida uylaring yaxshirogʻi- yetimlar izzat qilinadigan uyidir”. “Men yetimning kafilligini olgan odam bilan jannatda birga boʻlurman.”

Odamiylik ham hadislarda tez-tez tilga olingan mavzulardan. Jumladan. “Oʻzingga yoqqan narsani boshqalarga ham ravo koʻr!. Yoki: “Ziyoratingizga kelgan odamning hurmatini joyiga qoʻyinglar”.

Islom taʼlimoti gʻoyalariga koʻra har bir musulmon eng avvalo iymonli boʻlishi kerak. Qurʼoni Karimda taʼkidlaganidek, Islom dini yaratilishidan muddao, murod kishilardan iymon, eʼtiqodni shakillantirishdir. Hadislarda iymonning mukammal va mustahkam boʻlishi quyidagi uch shartga qatʼiy amal qilinishiga bogʻliqligi koʻrsatilgan:

1. Toʻgʻri eʼtiqodli boʻlmoq;
2. Kishi oʻz ustida ishlagan va oʻzini ibodat va itoatga chaqirmogʻi;

3. Kishilar bilan yaxshi munosabatda bo`lmoq:

Iymon daraxtga tenglashtirildi va uning 60 dan ortiq shoxlari bor deya uning belgilari sanab o`tiladi. Bu belgilarning har biri inson ma`naviy qiyofasini shakillantiruvchi mukammallashtiruvchi xislatlardir. Bular quyidagilardan iborat: “mQo`li bilan va tili bilan o`zgalarga ozor bermagan kishi musulmondir”, “ O`zingiz yaxshi ko`rgan narsani birodaringizga ravo ko`rmaguningizcha hech biringiz chinakam mo`min bo`la olmaysiz” (3-4boblar); “uchta xislatni mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo`lgaydir;

- Insofli va adolatli mo`lmog`i:
- Barchaga salom bermog`i:
- Kambag`allikda ham sada berib turmog`i” (20-bob)

Bundan tashqari, kishilar uchun xos bo`lmagan xislati xususida ham so`z yuritiladi, chunonchi, “Rasululloh sallallohu alayhi vassalam aytganlar: “Quyidagi to`rtta xislat kimda bo`lsa, aniq munofiq bo`lg`aydir, kimdagi, ulardan biri bo`lsa unit ark etmaguningacha munofqlikdan bir xislati bor ekan, deyiladi:

- Omonatga xiyonat qilgaydir;
- So`zlasa yolg`on so`zlaydir;
- Shartnoma tuzsa, shartida turmagaydir;
- Urishib qolsa, kek saqlagaydir u nohaqlik qilg`aydir(25-bob)

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak har bir hadis chuda tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uni o`rganib hayotimizga tatbiq etsak o`sib ulg`ayotgan har bir yosh avlod barkamol va komil inson bo`lib tarbiyanaladi. Har bir kishining ota-onasiga yaxshilik qilgandek, bolalariga ham yaxshilik qilishi lozim, zero, inson bo`ynida ota-onasiga yaxshilik qilganidek, bolaning ham haqi borligi xususidagi g`oyalar Qur`oni Karimda ham va Hadisi sharifda ham uqtirilgan.

ADABIYOTLAR

1. Axmedov M. Umumiy pedagogika nazaryasi va tarixi.- Toshkent, 2011–yil . 48-bet.
2. Al-Buxoriy. AL-Adab al mufrad.-Toshkent: “Movarounnahr”, 2006-yil
3. Hikmatillayev H, Mansurov A. Axloq- odobga oid hadis namunalari.-T:. “Fan nashiryoti. 15-bet
4. Hashimov K . Nishonova S. Pedagogika tarixi.-Toshkent. 2005-yil. 55-bet
5. WWW.ziyounet.uz: www.ziyouz.com